



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 11-sinflar uchun
II chorak jahon tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 11-sinf jahon tarixi fanidan II chorak
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	G‘arb mamlakatlari integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi.	1		
2.	Amerika Qo‘shma Shtatlari	1		
3.	Germaniya Federativ Respublikasi	1		
4.	Buyuk Britaniya.	1		
5.	Fransiya	1		
6.	CHSB-1. (40 ball)	1		
7.	Italiya.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: G'arb mamlakatlari integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: 1991-yildan boshlangan davrida dunyoning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimida katta o'zgarishlar ro'y berganligi, bu davrda jamiyat hayotining barcha jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan omil ilmiy-texnik inqilobning yangi bosqichi — kompyuter-axborot inqilobi bo'lganligi, bu inqilob ta'siri ostida rivojlangan mamlakatlarda sivilizatsiyaning industrial bosqichidan postindustrial, axborot bosqichiga o'tish boshlanganligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichini tahlil qilish va mustaqil hayotga qadam qo'yish arafasida turgan o'quvchilarga o'z hayotiy istiqbolini belgilab olish imkonini beruvchi bilimlarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: jahon xalqlari madaniyatining har biri o'ziga xos noyob ekanligini, gumanizm va vatanparvarlik tamoyillari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat g'oyalari asoslangan umuminsoniy qadriyatlarni anglashga ko'maklashish, jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlarini bilib olish, rivojlanishning o'ziga xos yo'llarini tushunish va istiqbollari haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1.FK1- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:

2.FK2- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

YI — bu 27 ta Yevropa davlatining hamkorligiga asoslangan YI ittifoq. YI hudud jihatidan Yevropa qit'asining katta qismini egallaydi. Bugun YI aholisi 448 milliondan ortiq kishini yoki Yer yuzi aholisining 6% ga yaqinini tashkil qiladi. YI Yevropa qit'asidan uzoqda joylashgan to'qqizta mintaqani ham qamrab olgan. Bu dengizorti hududlariga quyidagilar kiradi: Fransiyaga qarashli Fransuz Gvineyasi, Gvadelupa, Martiniki, Mayotta, Reyunon va Sen Marten, Portugaliyaga qarashli Azor orollari va Madeyra hamda Ispaniyaga qarashli Kanar orollari. YI shiori "Xilma-xillik birligi" bo'lib, unda YIning turli qadriyatlari mujassamlashgan. YIga kiruvchi har bir davlat o'z madaniyati, tili va an'analariga ega bo'lsa-da, ularning barchasi YI a'zolari rioya qilishi lozim bo'lgan umumiy qadriyatlarni qabul qiladi.

Yildagi integratsiya jarayonlari — bu murakkab va ko'p qirrali jarayon, u YIga a'zo davlatlar o'rtasida turli sohalarda hamkorlik va birlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Iqtisodiy birikma sifatida faoliyat boshlagan YI umumiy valyuta, odamlar va tovarlarning erkin harakati, shuningdek, bir qator umumiy boshqaruv institutlariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot darajasiga yetdi. Bugun tashqi siyosat va mudofaa, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, umumiy huquqiy bazani shakllantirish kabi masalalar



boshqaruvning umumiy institutlari tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. 1990-yillardan boshlab Yevropa integratsiyasining rivojlanishi ikki yo'nalish bo'yicha bordi. *Birinchidan*, yangi a'zolari qabul qilish yo'nalishi bo'lib, 1996-yili a'zolar soni 15 taga yetdi. 2002-yili Kopengagen (Daniya)da bo'lib o'tgan uchrashuvda Yevroittifoqqa yana o'nta yangi a'zo — Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya taklif qilindi. Albatta, yangi taklif qilingan davlatlar uchun o'tish davri ko'zda tutilgan bo'lib, bu

davr mobaynida ular o'z qonunchiligini, moliyaviy va iqtisodiy tizimini yagona Yevropa talablariga moslashtirishi lozim edi. Ularga o'zlarining ichki muammolarini hal qilish uchun Yevroittifoq byudjetidan 1 milliard yevro subsidiya ajratildi. Ammo majlis kun tartibidagi yana bir muhim masala — Turkiyaning Ylga qabul qilinishi masalasi hal qilinmadi.

Ikkinchidan, integratsiyaning chuqurlashuvi Yevropa mamlakatlarida o'zaro siyosiy munosabatlar sohasini ham qamrab olish yo'lidani bordi. Yevropa parlamentining maqomi oshdi, Yevroparlamentga to'g'ridan to'g'ri saylovlar o'tkaziladigan bo'ldi. 1993-yili yagona Yevropa fuqaroligini ta'minlagan Maastrixt shartnomasi kuchga kirdi. Ylga kiruvchi mamlakatlar fuqarolari hech qanday vizasiz Ittifoqning istalgan mamlakatida xohlagan muddatigacha yashashi va mahalliy saylovlarda ishtirok etishi mumkin bo'ldi. Qonunchilikni birxillashtirish huquqiy normalarning yagona Yevropa tizimi shakllanishiga olib keldi. Kelishilgan yagona tashqi va mudofaa siyosati olib borildi. 2002-yili Yevropada (Buyuk Britaniyadan tashqari) yagona valyuta — yevro joriy qilinishi Yl davlatlarini yanada yaqinlashtirdi. Endi Yevropa Ittifoqiga amalda konfederatsiya tipidagi yagona davlat tuzilmasi sifatida qarash mumkin bo'ldi. Yevroatlantika mamlakatlarining keyingi integratsiyasi G'arbiy Yevropa bilan Shimoliy Amerika davlatlarining yanada yaqinlashuvi yo'lidani bordi. Ayni paytda Ylda iqtisodiy jihatdan yetakchilik qilayotgan Germaniya va Fransiyaning siyosiy bosimidan ham norozilik kuchayib bordi. Bu norozilikning yorqin namoyishi Buyuk Britaniyada 2016-yil iyunda o'tkazilgan referendum bo'lib, unda ishtirok etgan aholining yarmidan ko'pi mamlakatning Yldan chiqishi uchun ovoz berdi. 2020-yil 31-yanvar kuni Buyuk Britaniyaning Ylga a'zoligi to'xtatildi. Koronavirus pandemiyasi butun dunyoda bo'lgani singari Ylda ham katta insoniy yo'qotishlarga va iqtisodiy tushkunlikka olib keldi. Aholini ommaviy emlash orqali virus tarqalishining oldini olishga qaratilgan tadbirlardan tashqari,

Yl sog'liqni saqlash milliy tizimlarini qo'llab-quvvatlash orqali ham "COVID-19" pandemiyasini yengib o'tishga erishdi. 2022-yil fevralda Rossiya va Ukraina o'rtasida keng miqyosli urush boshlanishi bilan Yl Ukraina va uning xalqini qo'llab-quvvatlashni boshladi. Xususan, gumanitar va favqulodda yordam, moliyaviy va tezkor qo'llab-quvvatlash, shuningdek, harbiy yordam ko'rsatishni bugungi kunda ham davom ettirib kelmoqda. Yl Rossiyaning Ukrainaga qarshi urushini agressiya deb baholab, bu urushni xalqaro miqyosda qoralab kelmoqda va Rossiyaga qarshi keng miqyosli sanksiyalar e'lon qildi. Bu sanksiyalar Rossiyani iqtisodiy izolyatsiyalashga va agressiya uchun



Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

uning moliyaviy imkoniyatlarini cheklashga qaratildi. Bu davrda YI Markaziy Osiyo (MO) davlatlari bilan yaqinlashuv siyosatini faollashtirdi. Xususan, 2022-yil Qozog‘istonning Ostona shahrida, 2023-yili Qirg‘izistonning Cho‘ponota shahrida YI — MO formati doirasida oliy darajadagi uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. 2023-yil oktyabrda Lyuksemburgda bo‘lib o‘tgan YI va MO davlatlari tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvida 2024-yili birinchi sammitni Samarqand shahrida o‘tkazishga kelishib olindi. Ammo turli sabablarga ko‘ra, sammit 2025-yilga ko‘chirildi. Shu yili aprelda Samarqandda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan sammitda ikki mintqa — YI va MO o‘rtasidagi munosabatlarni strategik hamkorlik darajasiga ko‘tarish to‘g‘risida kelishib olindi. Shuningdek, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirboshlashni ko‘paytirish, innovatsiyalar, “Yashil energetika”, tog‘-kon, qishloq xo‘jaiigi, transport, logistika va raqamlashtirish sohalarida qo‘shma dastur va kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, madaniyat, turizm, fan, ta‘lim va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda faol almashinuvlarni davom ettirish lozimligi ta‘kidlandi. Sammit doirasida bo‘lib o‘tgan konstruktiv va samarali uchrashuvlar ikki mintqa manfaatlari yo‘lida sheriklik va amaliy hamkorlikni chuqurlashtirishga bo‘lgan siyosiy iroda va qat‘iyatni namoyon etdi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, umumiy siyosiy iroda tufayli Markaziy Osiyodagi chuqur transformatsiya jarayonlari barqaror va ortga qaytmas tus oldi. Ishonch va yaxshi qo‘shnichilik mustahkamlanmoqda, keng ko‘iamli hamkorlik va kooperatsiya aloqalari kengaymoqda. Bugungi kunda mintaqada yirik investitsiya va infratuzilma loyihalari birgalikda amalga oshirilmoqda, ularni qo‘llab-quvvatlash uchun investitsiya fondlari va kompaniyaiari faoliyat yuritmoqda. Mintaqa ichidagi savdo ko‘paymoqda, chegaraoldi savdo zonalarini tashkil etilmoqda. Bularning barchasi mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. So‘nggi yeti yilda mamiakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi bir necha barobar o‘shib, 54 milliard yevroni tashkil etdi. Samarali hamkorlik platformalari ishga tushirildi. Toshkent shahrida Yevropa investitsiya banki ofisini ochish to‘g‘risida bitim imzolaniib, bu YI mamlakatlaridan Markaziy Osiyoga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar oqimini rag‘batlantirishga xizmat qilishi ta‘kidlandi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. 1990-yillari Yevropa integratsiyasi qanday yo‘nalishlar bo‘yicha davom ettirildi?
2. Buyuk Britaniyaning Yldan chiqishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:

YI mamlakatlari hamda unga a‘zo bo‘lish uchun murojaat etgan davlatlarni internetdan aniqlang va daftaringizga jadval ko‘rinishida yozing.			
A‘zo mamlakatlar	Rasmiy nomzodlar	YI a‘zolidan chiqqan davlat	YI tarkibiga qo‘shilmagan davlatlar

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

20 listdan iborat 11-sinf jahon tarixi fanidan II chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**